

RAJABOV Shuxratjon Sheraliyevich
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
Email: sh.rajabov@iia.uz
UDK: 18.130.2+004255(575.1)
<https://orcid.org/0009-0001-7532-6713>

AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING IJTIMOIIY ONG VA QADRIYATLARGA TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ОБЩЕСТВЕННОЕ СОЗНАНИЕ И ЦЕННОСТИ

THE IMPACT OF INFORMATION TECHNOLOGIES ON SOCIAL CONSCIOUSNESS AND VALUES

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) zamonaviy jamiyat hayotidagi o'rni hamda ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimiga ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli makon shaxsning dunyoqarashi, axloqiy tushunchalari va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va algoritmik filtrlash mexanizmlari orqali axborot oqimining boshqarilishi "echo chamber" effekti va selektiv ong shakllanishiga olib kelishi mumkinligi asoslanadi. Shu bilan birga, AKT tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, global muammolar yuzasidan xabardorlikni oshirish va ijtimoiy tashabbuslarni kengaytirish imkonini beradi. Tadqiqot AKTni nafaqat texnologik vosita, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi murakkab ijtimoiy mexanizm sifatida talqin qiladi.

Kalit so'zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli makon, ijtimoiy ong, algoritmik filtr, echo chamber, qadriyatlar, raqamli shaxsiyat, media ta'siri.

Аннотация. В статье анализируется роль информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в современном обществе и их влияние на формирование общественного сознания и системы ценностей. Цифровое пространство рассматривается как фактор трансформации мировоззрения, нравственных установок и социального поведения личности. Особое внимание уделяется алгоритмическим

механизмам фильтрации контента, которые могут приводить к эффекту «эхо-камеры» и селективному формированию сознания. В то же время ИКТ способствуют развитию критического мышления, повышению глобальной осведомленности и расширению социальных инициатив. Автор рассматривает ИКТ не только как технологический инструмент, но и как сложный социальный механизм формирования общественного сознания.

Ключевые слова: Информационно-коммуникационные технологии, цифровая среда, общественное сознание, алгоритмическая фильтрация, эхо-камера, ценности, цифровая идентичность, медиа-влияние.

Annotation. This article examines the role of information and communication technologies (ICT) in contemporary society and their impact on the formation of social consciousness and value systems. The digital environment is analyzed as a significant factor influencing worldview, moral perceptions, and social behavior. Particular attention is paid to algorithmic filtering mechanisms that may generate the "echo chamber" effect and selective consciousness formation. At the same time, ICT contributes to the development of critical thinking, global awareness, and the expansion of social initiatives. The study interprets ICT not merely as a technological tool but as a complex social mechanism shaping public consciousness.

Keywords: Information and Communication Technologies, digital environment, social consciousness, algorithmic filtering, echo chamber, values, digital identity, media influence.

KIRISH

Bugungi kunda axborotkommunikatsiya texnologiyalari (AKT) jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar odamlar o'rtasidagi muloqot va axborot almashuvini sezilarli darajada osonlashtirmoqda. Ular nafaqat axborot uzatadi, balki insonlarning fikrlash uslubi va qarashlariga ta'sir qiladi. Raqamli makon orqali odamlar yangi bilim oladi, tajriba almashadi va o'zaro munosabatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, AKT ijtimoiy qadriyatlar va madaniyat shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Yosh avlodning dunyoqarashi, axloqiy tushunchalari va ijtimoiy xulqatvori raqamli muhit orqali ta'sirlanadi. Raqamli axborot makoni nafaqat individual foydalanuvchilar, balki guruhlar va tashkilotlar faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Bu makon formal va noformal muloqot, shaxsiy va

jamoaviy tajribalarni birlashtiradi. Shunday qilib, AKT shunchaki texnologik vosita bo'lib qolmay, balki ijtimoiy ong va qadriyatlarni shakllantiruvchi muhim omilga aylanadi. Zamonaviy jamiyatni tushunish va uning rivojlanishini tahlil qilishda raqamli texnologiyalarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda axborotkommunikatsiya texnologiyalari jamiyatning turli sohalarida – ta'lim, madaniyat, biznes, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarda chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar va boshqa axborot texnologiyalari orqali uzatiladigan axborot oqimi nafaqat muloqot jarayonlarini osonlashtiradi, balki insonlarning ijtimoiy ongini, qarashlari va qadriyat tizimini ham qayta shakllantirmoqda [1:28].

Axborot tezligi va uning global qamrovi, shuningdek, foydalanuvchilar tomonidan yaratiladigan va qayta ishlanadigan kontent ijtimoiy ongning shakllanishida markaziy omilga aylanmoqda. Masalan, yosh avlodning internetdagi faoliyati, trendlar va algoritmik tavsiyalar uning axloqiy qadriyatlari, dunyoqarashi va muloqot madaniyatiga bevosita ta'sir qilmoqda [2:154]. Shu bilan birga, AKT jamiyatning ijtimoiy qadriyatlarini mustahkamlash, yangicha madaniy andozalar yaratish va shaxslararo aloqalarni diversifikatsiya qilish imkonini ham beradi.

Bundan tashqari, raqamli axborot makoni nafaqat individual foydalanuvchilar faoliyati bilan chegaralanmaydi, balki turli guruhlar, ijtimoiy institutlar va media platformalarining faol ishtirokini talab qiladi. Bu holat AKTni shunchaki texnologik vosita emas, balki ijtimoiy ong va qadriyatlar strukturasini uzviy bog'lab turuvchi murakkab ijtimoiy mexanizm sifatida ko'rishga imkon beradi [3:87]. Shu sababli, zamonaviy jamiyatni tushunish va uning rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishda texnologik va ijtimoiy omillarni birgalikda o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Axborotkommunikatsiya texnologiyalari (AKT) insonlarning dunyoqarashi, qarashlari va muammolarni idrok etish usullarini tubdan o'zgartirmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va bloglar orqali tarqatiladigan axborot tezligi,

ommaviyligi va global qamrovi insonlarni turli manbalar bilan tanishtiradi, ularni mustaqil fikrlashga va tanqidiy yondashishga yo'naltiradi [4:20]. Bu jarayon shaxsning ma'lumotga bo'lgan qabul qilish mexanizmini o'zgartiradi. Masalan, ilg'or texnologiyalar yordamida foydalanuvchi bir vaqtda turli mamlakatlarda yuz berayotgan voqealarni kuzatishi mumkin. Bu esa nafaqat faktlarga asoslangan qaror qabul qilishni rag'batlantiradi, balki inson dunyoqarashini global nuqtai nazardan kengaytiradi.

Misol uchun, yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali xorijiy ekologik kampaniyalarni kuzatib, mahalliy atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlariga qo'shilishadi. Masalan, "Fridays for Future" harakati yoshlar ongini global ekologik muammolar bilan tanishtirib, mahalliy ekologik tashabbuslarni rag'batlantiradi.

Raqamli muhit insonning ehtiyojlarini qondirish va manfaatlarini ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, kontekstli reklama va maqsadli axborot oqimlari orqali idrok jarayonini boshqaradi [5:32]. Raqamli shaxsiyat, real shaxsiyat va media makon sintezlashib, inson ongida sub'ektiv obrazlar tizimini hosil qiladi. Ushbu obrazlar ma'no, qadriyat va funksional mazmun bilan to'ldirilib, shaxs bilan faol o'zaro ta'sirga kirishadi.

Shuning uchun axborotni idrok etish, obrazlarning shaxs ichki dunyosiga singishi, ularni qayta ishlash va tafakkur shakllarini yaratish mexanizmlarini o'rganish muhimdir. Aynan shu jarayonlar keyinchalik e'tibor yo'nalishi va xulq-atvor modellarini belgilaydi.

AKT ijtimoiy ongni shakllantirishda ikki tomonlama mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, u foydalanuvchilarga turli manbalardan mustaqil axborot qidirish va solishtirish imkonini beradi. Boshqa tomondan, algoritmlar orqali filtrlanuvchi kontent foydalanuvchining e'tibor maydonini aniqlangan informatsiyaga yo'naltiradi, bu esa dunyoqarashning stereotipli yoki bir tomonlama shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Bu ijtimoiy ongni "interaktiv filtrlash" bilan boshqarish mexanizmi sifatida qarash imkonini beradi. Tanqidiy fikrlash imkoniyatini kengaytirsa-da, foydalanuvchining faqat bir taraflama axborotga duch kelishi ehtimoli ortadi.

Facebook va TikTok algoritmlari foydalanuvchining avvalgi qiziqishlariga mos

kontentni ko'rsatadi. Masalan, agar foydalanuvchi siyosiy postlarni ko'proq ko'rib chiqqan bo'lsa, unga shu mavzudagi kontent ko'proq yetkaziladi. Bu esa "echo chamber" effektini yaratadi va foydalanuvchining qarashini muayyan bir tomonga yo'naltiradi.

Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va onlayn platformalar bugungi kunda ijtimoiy ongni shakllantiruvchi markaziy maydonlardir. Bu maydonlarda foydalanuvchilar fikr almashadi, muhokamalar olib boradi, turli kompaniyalar va tashabbuslarni keng auditoriyaga yetkazadi.

Bu jarayon shaxs va jamoa darajasida muloqotning yangi shakllarini yaratadi. Axborot oqimi va interaktiv muloqot orqali foydalanuvchilar ijtimoiy masalalarni tahlil qiladilar, o'z fikrlarini shakllantiradilar va keng auditoriyaga tarqatadilar.

Twitter orqali siyosiy mavzular bo'yicha xalqaro muhokamalar olib boriladi. Masalan, "BlackLivesMatter" kompaniyasi foydalanuvchilar ongini irqiy adolat va inson huquqlari masalalari bo'yicha faol shakllantirdi. Shu tarzda, ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik tashabbuslar, masalan "PlasticFreeJuly", keng auditoriyaga yetkaziladi va jamiyatning ekologik ongini rivojlantiradi [6:178].

Onlayn kompaniyalar va ijtimoiy tashabbuslar ijtimoiy ongni tez va keng qamrovda shakllantiradi. Siyosiy kompaniyalar saylovlar oldidan foydalanuvchilarni xabardor qilish, muayyan qarashlarga yo'naltirish yoki savol tug'dirishda ishlatiladi. Ekologik kompaniyalar atrof-muhitni asrash masalalarida jamoatchilik e'tiborini jalb qiladi. Madaniy kompaniyalar esa milliy qadriyatlar, san'at va tilning ahamiyatini targ'ib qiladi.

Bu ko'rsatadi-ki, raqamli makon nafaqat axborot almashish, balki ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish va jamiyatni ongli ravishda rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

- onlayn saylov kompaniyalari, masalan, saylov oldi webinarlar va forumlar orqali foydalanuvchilarga partiyalar dasturlari yetkaziladi.

- Instagram va YouTube platformalarida tarqatilgan "Save the Planet" videolar, foydalanuvchilarni ekologik harakatlarga jalb qiladi.

- Facebook va Telegram orqali milliy san'at va folklor targ'iboti, xalq bayramlarini onlayn ko'rsatish orqali jamiyat madaniy identitetini mustahkamlaydi.

Shu sababli, AKT ijtimoiy ongni shakllantirishda ikki tomonlama ta'sir mexanizmini namoyon etadi: u axborotni erkin va tez almashish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, lekin bir vaqtning o'zida algoritmik filtrlar orqali selektiv ong shakllanishiga ham olib keladi.

Bu jarayon dissertatsiya uchun metodologik nuqtai nazardan muhimdir, chunki ijtimoiy ongning mazmuni va dinamizmi AKT orqali uzviy bog'langan mexanizmlar orqali shakllanadi. Analitik yondashuv va tizimli tahlil foydalanuvchilarning kontentni qabul qilish va ongni shakllantirish jarayonini aniqlash imkonini beradi.

Raqamli media foydalanuvchilarning siyosiy, ekologik va madaniy mavzularga nisbatan qarashlarini shakllantiradi, lekin "algoritmik burilish" tufayli ayrim mavzularda stereotipik yoki cheklangan tushuncha paydo bo'lishi mumkin.

XULOSA

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, kommunikativ mexanizmlari va ong shakllarini tubdan o'zgartirdi. AKT bugungi kunda shunchaki texnik vosita emas, balki ijtimoiy ongni ishlab chiqaruvchi, qayta shakllantiruvchi va yo'naltiruvchi murakkab ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli makon insonning borliqni idrok etish, baholash va talqin qilish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Axborotning tezligi, ommaviyligi va global xarakteri natijasida dunyoqarashning hududiy chegaralari kengayib, transmilliy tafakkur modeli shakllanmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AKT ijtimoiy ongga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, u tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, alternativ nuqtai nazarlarni taqdim etadi va shaxsni mustaqil axborot qidirishga undaydi. Bu jarayon ijtimoiy ongning pluralistik va ochiq modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, algoritmik filtrlash, maqsadli kontent va personalizatsiyalangan axborot oqimi selektiv ong fenomenini yuzaga keltiradi. Natijada "echo chamber" effekti paydo bo'lib, foydalanuvchi faqat o'z qarashlariga mos keladigan axborot bilan chegaralanishi mumkin. Bu esa stereotiplashgan tafakkur va biryoqlama dunyoqarash shakllanishiga olib keladi.

Raqamli makon shaxsning identitetiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Virtual obrazlar, media konstruksiyalar va ijtimoiy platformalardagi faoliyat real shaxsiyat bilan sintezlashib, yangi – raqamli shaxsiyat modelini yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayon ijtimoiy rollar, qadriyatlar va axloqiy mezonlarning qayta talqin qilinishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning dunyoqarashi va axloqiy orientatsiyalari ko'proq raqamli muhit ta'sirida shakllanmoqda.

Shuningdek, AKT ijtimoiy qadriyatlar transformatsiyasining katalizatori sifatida namoyon bo'lmoqda. Ekologik, siyosiy va madaniy kampaniyalar qisqa vaqt ichida keng auditoriyani qamrab olib, jamoatchilik ongini shakllantirish imkonini bermoqda. Bu jarayon ijtimoiy ongning dinamik, interaktiv va tarmoqlashgan modelini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, manipulyativ axborot, dezinformatsiya va raqamli propagandaning kuchayishi ijtimoiy barqarorlikka tahdid solishi mumkin.

Umuman olganda, AKT ijtimoiy ongni shakllantirishda murakkab va ko'p qatlamli mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. U erkin axborot almashinuvi va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish imkonini bersa-da, algoritmik boshqaruv va selektiv axborot oqimi orqali ongni ma'lum yo'nalishga burish ehtimolini ham kuchaytiradi. Shu bois, zamonaviy jamiyatni o'rganishda texnologik va ijtimoiy omillarni integrativ metodologiya asosida tahlil qilish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/4396419?>. Murojaat sanasi: 14.05.2026.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>. Murojaat sanasi: 14.05.2026.
3. G'ulomov I.A. Raqamli media psixologiyasi: jamiyat ongiga ta'siri // Psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar. – 2025. – №1. – B. 12 25.
4. Karimov M.B. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ijtimoiy qadriyatlar transformatsiyasi // Ijtimoiy fanlar. – 2024. – T. 8, №3. – B. 45 59.
5. Safarova D.R. Raqamli madaniyat va yoshlar ongining shakllanishi // Madaniyat va ta'lim. – 2023. – №2. – B. 78 89.
6. Karimov M.B. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va jamiyat ongining shakllanishi // Ijtimoiy fanlar. – 2024. – T. 9, №1. – B. 5 18.
7. Sunstein C. R. #Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media. – Princeton: Princeton University Press, 2017. – 310 p.
8. Pariser E. The Filter Bubble: What the Internet Is Hiding from You. – New York: Penguin Press, 2011. – 294 p.
9. van Dijk J. The Network Society. – 3rd ed. – London: Sage Publications, 2012. – 304 p.
10. Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. – New York: New York University Press, 2006. – 308 p.
11. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2011. – 360 p.
12. Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980. – 537 p.